



UDK: 112:400.080.4(001-7)

Sanjarbek CHORIYEV,
Qarshi davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori
Shahnoza BOYBEKOVA,
Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: boybekovashahnoza86@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, DSc B.Omonov taqrizi asosida

MA'NAVIY QADRIYATLARNING SHAKLLANISHI: O'ZGARISHLAR VA EVRILISHLAR

Annotatsiya

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida ma'naviy qadriyatlarning rivojlanish vektorlaridagi o'rni, mo'ljallarini belgilashdagi roli va uni axloq kontekstida tadqiq etish, postmodern jamiyatning uning ijtimoiy pozitsiyasini kabi masalalarga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Maqolada ma'naviy qadriyatlar mazmuni va tarkibini o'rganish zamonaviy ilm-fanning yangi tendensiyasiga aylanayotgani ushbu sohadagi institusional tizim faoliyatining takomillashtirilishiga, yosh avlod ongida qadriyatlarga hurmat, ijodiy salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq jarayonlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Qadriyat, milliy qadriyatlar, milliy madaniyat, milliy turmush tarzi, ma'naviy qadriyat, ijtimoiy ishtirok, ijtimoiy guruh, mafkura.

THE FORMATION OF SPIRITUAL VALUES: CHANGES AND EVRATIONS

Annotation

In World Science and leading scientific centers, research is carried out on such issues as the role of spiritual values in the vectors of development, their role in determining their goals and its research in the context of ethics, the social position of postmodern society in it. The article explores the process by which the study of the content and composition of spiritual values becomes a new trend of modern science, which is associated with the improvement of the functioning of the institutional system in this area, respect for values in the minds of the younger generation, the creation of the necessary conditions for the realization of creative potential.

Key words: Value, national values, National Culture, National lifestyle, spiritual value, social participation, social group, ideology.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ: ПЕРЕМЕНЫ И УВЛЕЧЕНИЕ

Аннотация

В ведущих мировых научных и научных центрах ведутся исследования по таким вопросам, как роль духовных ценностей в векторах развития, их роль в определении целей и исследование их в контексте морали, социальной позиции постмодернистского общества. В статье исследуются процессы, связанные с совершенствованием функционирования институциональной системы в этой области, с созданием в сознании подрастающего поколения необходимых условий для реализации ценностей, творческого потенциала, изучение содержания и содержания духовных ценностей становится новым направлением современной науки.

Ключевые слова: Ценность, национальные ценности, национальная культура, национальный образ жизни, духовная ценность, социальное участие, социальная группа, идеология.

Kirish. Ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy shart-sharoitlar, jarayonlar ta'sirida o'zgarib, takomil topib boradi. Mazkur qonuniyat O'zbekiston sharoitida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin yuz bergan jarayonlar, yangilanishlar ezigulik bilan yo'g'rilgan bilim va g'oyalarning, ideal va normalarning shakllanishi jarayonini ham, uning mantig'ini ham tubdan o'zgartirdi. Buning ustiga, bu bilim va g'oyalarning umumijtimoiy ma'naviy mulkka aylanishi izchilligi ham yangilandi. Bu borada ayrim jihatlari ko'zga tashlanadi. Bir tomondan, yangi shart-sharoitlarda asrlar davomida qaror topgan hamda kishilar turmushi, dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatib kelgan qadriyatlar mazmunan boyidi. Boshqa tomondan esa, ularning tarkibida yangilanishlar, ya'ni ayrimlarining yuksalishi, boshqalarining qardrsizlanishi ro'y berdi. Uchinchidan, ma'naviy qadriyatlar iyerarxiyasida yangilanishlar sodir bo'ldi, ularning ayrimlari ko'proq, boshqalari esa nisbatan kamroq qadrlanadigan bo'ldi.

Muhokama va natijalar. Ma'naviy qadriyatlar mazmunini o'zgartirgan birinchi omil siyosiy islohotlar bilan bog'liq bo'ldi. Ma'lumki, siyosiy islohotlar deganda siyosiy institutlar faoliyatini takomillashtirish va siyosiy munosabatlar mazmunini yangilash orqali davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan o'zgarishlar nazarda tutiladi[1]. Uning tub muddaolari xalq hokimiyatchiligi tamoyillariga asoslangan sifatlan yangi tizimni vujudga keltirish, shu orqali mavjud institutlar faoliyati unumini va natijadorligini oshirish, pirovardida fuqarolar haq-huquqlarini ta'minlashdan iborat. esa, siyosiy islohotlar muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarni talab etadi.

O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillarida ana shunday ijtimoiy zaruriyat ham, ijtimoiy shart-sharoit ham pishib yetilgan edi. Bir tomondan, sovet voqeligining eskirgan siyosiy tizimi allaqachon jamiyat manfaatlariga xizmat qilmay qo'ygandi – bu hol jamiyat siyosiy tizimini isloh qilish zaruriyatini oshirib yuborgandi. Ikkinchi tomondan, tarixiy

taraqqiyotning o'sha pallasida kishilarning respublika hukumatiga inon-ishonchi benihoya yuksalgan edi. Ular yuksak orzular bilan yashayotgan hamda tub yangilanishlarni kutayotgan edilar. Bularning barchasi islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlashga qodir salohiyat tarzini olgandi. Mamlakat rahbariyati davrning ushbu nyuanslarini chuqur his qila oldi va o'z faoliyatini ularga monand ravishda tashkil qilishga musharraf bo'ldi. Ilk yillarda ularga tayangan holda yangi o'zbek davlatchiligi asoslari yaratildi, jamiyat siyosiy institutlari faoliyati takomil toptirildi, siyosiy munosabatlar mazmuni keskin o'zgartirildi[2].

Lekin siyosiy islohotlarning dastlabki bosqichida "davlat – jamiyat – inson" tamoyiliga amal qilib kelindi. Davlat qurilishi va boshqaruvi, barcha siyosiy tuzilmalar, ularning ish uslubi va faoliyati ham ana shu tamoyil asosida shakllandi" [3]. Keyingi yillardagina siyosiy islohotlar o'zgacha tamoyilga bo'ysundirildi. Shu munosabat bilan mamlakat Prezidenti shunday deb yozgan edi: "Inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari faoliyatining eng ustuvor maqsadi bo'lishi lozim. Jamiyat qurilishi va davlat siyosati ana shu g'oyaga tayanishi hamda "Davlat – inson uchun" tamoyili asosida tashkil etilishi darkor" [3]. Mazkur qoidaga tayangan holda ro'yobga chiqarilgan sa'y-harakatlar sharofati bilan mavjud boshqaruv tizimi yangicha sifat kasb qildi. Qisqa muddatda turli subyektlar o'rtasidagi munosabatlar tabiati o'zgardi. Bularning barchasi mamlakat siyosiy borlig'ida sifatlan yangi makon yuzaga kela boshlaganini ko'rsatardi.

Yangi siyosiy makonda faoliyat ko'rsatish uchun yangi siyosiy bilimlar, norma va tamoyillarga tayanish zarur bo'ladi. Ushbu zaruriyat O'zbekistonda kommunistik mafkura nuqtai nazaridan shakllantirilgan siyosiy bilimlarni qadrsizlantirdi, ularning o'rmini demokratik jamiyat siyosiy borlig'iga oid siyosiy bilimlar egallashiga olib keldi. Ayni damda mamlakat fuqarolarining aksariyat qismi voqealarga nisbatan o'z nuqtai-nazarlarini shakllantirishda, u yoki bu jarayonda ishtirok etishda aynan ana shu bilimlarga va g'oyalarga tayanmoqdalar. 2023 yilda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririni qabul qilishga doir umumxalq referendumida[4], shu yilning 9 iyulida davlat rahbari tashabbusi bilan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga muddatidan ilgari saylovlarda[5], Qonunchilik palatasiga hamda mahalliy xalq deputatlari kengashlariga saylovlarda[6], kishilarning yangi voqelikka doir bilimlardan amalda foydalanayotganlari, o'z nuqtai-nazarlarini ular asosida shakllantirayotganlari yaqqol namoyon bo'ldi.

Yangi siyosiy makon proletariat diktaturasiga asoslangan kommunistik qadriyatlarini demokratik siyosiy qadriyatlar bilan almashtirdi. Bu makonda so'z va tafakkur erkinligi, saylash va ovoz berish erkinligi, fikrlar plyuralizmi, davlat muassasalari shaffofligi va mas'uliyatdorligi, hukumat legitimligi kabi siyosiy qadriyatlarning ijtimoiy pozitsiyalari mustahkamlandi[7]. Demokratik siyosiy qadriyatlar jamiyat hayotida tobora chuqur ildiz otib borayotganini ko'plab tadqiqotchilar ham o'z maqolalarida qayd qiladilar[8].

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini o'zgartirgan ikkinchi omil huquqiy tizim modernizatsiyasi bilan bog'liq bo'ldi. Ilmiy manbalarda jamiyatning huquqiy tizimi undagi turli munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar, sohalar va institutlar majmui sifatida ta'riflanadi. Mazkur tizim fuqarolarning huquq va majburiyatlarini, davlat idoralari va tashkilotlari faoliyatini, nizolarni hal qilish va huquqbuzarliklarni jazolash tartibini belgilaydi[9;12-13]. Uning sifati va takomil topganligi darajasi ko'p jihatdan butun jamiyat bo'ylab kechayotgan jarayonlar xarakterini, shu jumladan ijtimoiy yangilanishlar natijasini, kishilar tomonidan eng ezgu g'oyalar va bilimlarning o'zlashtirilishi meyorini belgilab beradi.

O'tgan asr oxirlarida O'zbekistondagi ijtimoiy tuzum o'zgarishi ana shunday huquqiy tizim modernizatsiyasiga ehtiyoj tug'dirdi. Yangi ijtimoiy shart-sharoitlar, yangi ijtimoiy mo'ljallar mohiyatan o'zgacha huquqiy normalarni, institutlarni taqozo qilardi. Ushbu zaruriyatga javoban mamlakatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ko'plab huquqiy normalar qayta ko'rib chiqildi, huquqiy institutlar faoliyati unumini oshirish choralari ko'rildi. Ushbu modernizatsion jarayonlar qonun ustuvorligi tamoyili asosida amalga oshirildi[10]. Chunki, I.Karimov yozganidek, "qonun ustuvorligi – huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat'iyon hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo'jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo'ysunish majburiyatidan xalos bo'lishi mumkin emas" [11].

2023 yilda mamlakat asosiy huquqiy hujjatining jamiyat huquqiy voqeligini zamonaviylashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Shu munosabat bilan davlat rahbari shunday deb ta'kidlagandi: "Yangilangan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb qat'iy belgilab qo'yilgani tarixiy ahamiyatga ega. Xalqimizning xohish-irodasi bilan Asosiy qonunda muhrlangan bu prinsiplar – mamlakatimizning taraqqiyot yo'li va taqdirini, uning kelajagini belgilab bergan ushbu "beshta ustun" hech qachon o'zgartirilmaydi" [12].

Chorak asrdan ko'proq fursat mobaynida sodir bo'lgan huquqiy yangilanishlar jarayoni jamiyatdagi ezgulik bilan yo'g'rilgan bilim va g'oyalar tizimini o'zgartirdi. Endilikda davlat va uning manfaatlarini ulug'lovchi qadriyatlar emas, inson hamda jamiyat huquq va erkinliklarini e'tirof etuvchi qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb qila boshladi. Ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, huquqiy nizolarni hal qilish mexanizmi ham yangi qadriyatlar – insonparvarlik, kelishuvga kelish, murosa qilish tamoyillari bilan boyidi. Mavzuning ushbu aspektini tadqiq qilgan ko'plab mualliflar huquqiy tizim modernizatsiyasi jamiyat huquqiy qadriyatlarini mazmuni va iyerarxiyasini tubdan o'zgartirganini qayd qiladilar[13].

Ma'naviy qadriyatlar mazmunini o'zgartirgan uchinchi omil o'zbek milliy madaniyatining yuksalishi bilan bog'liq bo'ldi. "O'zbek milliy madaniyati deganda o'zbek xalqi vakillari tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida shakllantirilgan jamiki moddiy va ma'naviy qadriyatlar, mazkur qadriyatlarni bunyod etish yo'llari, ulardan milliy va umuminsoniy taraqqiyot yo'lida foydalanish, ajdodlardan avlodlarga yetkazish malakasi tushuniladi. U quyidagi elementlardan tarkib topadi: a) o'zbek adabiy tili; b) o'zbek milliy an'analari; v) o'zbek milliy qadriyatlar; g) o'zbek madaniy merosi; d) o'zbek adabiyoti; ye) o'zbek san'ati; j) o'zbek milliy tarbiyasi" [14]. O'zbek milliy madaniyati asrlar davomida axloqiy qadriyatlarni shakllantirgan qudratli omil bo'lib kelgan. Chunki o'zbeklar uchun qadrlil sanalgan xulq-atvor va yurishturish qoidalari xalq vakillari uchun umumiy bo'lgan e'tiqod, urf-odat va an'analar asosida, milliy adabiyot va san'at ta'sirida yuzaga kelgan va yuksalgan. Oilaviy munosabatlar, jamoat joyidagi hatti-harakatlar, shaxslararo aloqalarni muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan axloqiy qadriyatlar ko'p jihatdan milliy madaniyat rivojiga mutanosib ravishda takomil topa borgan[14].

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy madaniyatini tiklash va yuksaltirishga alohida e'tibor berildi. Xususan, o'zbek tili muomala doirasi kengaytirildi. "Mustaqillik yillarida o'zbek tilini rivojlantirish yo'lida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbek tili o'tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o'zaro bog'laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi" [15]. Bugungi kunda ham "o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy

tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda" [15].

O'tgan davr mobaynida unut bo'lgan milliy urf-odat va an'analar tiklandi. "O'zbek an'analari va urf-odatlarini buyuk ipak yo'lida yashagan xalqlar, So'g'd va Baqtriyaliklar, bir tomondan ko'chmanchi kabilalar, zoroastrizm qoidalari, keyinroq islom an'analari va qonunlari bilan uyg'unlashib ketgan. Qarindosh-urug'chilik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondorchilik, qo'shnichilik, oilaviy munosabatlar, nonga, olovga, suvga e'tibor va e'tiqod o'zbek xalqiga xos urf-odatlardir" [16]. Bu odatlarning tiklanishi jamiyatda mutlaqo o'zgacha muhitni yuzaga keltirdi.

Mustaqillik yillarida, shuningdek, millat madaniy merosiga munosabat tubdan o'zgartirildi, adabiyot va san'at mafkuraviy tazyiqdan xalos qilindi. Mazkur choralar o'zbek milliy madaniyati rivojini jadallashtirdi, pirovardida esa kommunistik axloq normalari o'rnini milliy axloqiy qadriyatlar egallashiga zamin yaratdi. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi Akademiyasi dotsenti Sh.K. Ismailova o'tkazgan sotsiologik so'rov natijalari mustaqillik yillarida o'zbek milliy madaniyati yuksalishi milliy axloqiy qadriyatlarining tiklanishiga sabab bo'lganini yaqqol ochib berdi. Unda qatnashgan respondentlarning 53 foizi milliy axloqiy qadriyatlarining tiklanishini davlatning siyosiy mustaqillikka erishishi, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomining mustahkamlanishi, Navro'z va boshqa milliy bayramlar, urf-odatlarining yangicha mazmun kasb qilishi, tarixiy obidalarining ta'mirlanishi, muqaddas qadamlar obod qilinishi bilan bog'ladilar" [17].

Xulosa. Xullas, "mustaqillik bois ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan etnomadaniy qadriyatlarimiz tiklandi, hayotimizga qaytib, uni yanada yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirdi. Ular o'zligimizni anglashimizda, uzoq va shonli tariximizga nazar solishimizda, milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini yana dildan his qilishimizda, milliy uyg'onish, milliy tiklanish, milliy o'nglanish, milliy yuksalishimizda muhim omillardan bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Працко Г.С., Шпак В.Ю. Политические реформы и революции.//Философия права, 2014, №3.- 56-с.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.// O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O'zbekiston, 1996.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston. 2021.- B. 67.
4. Komilova M. Referendumning joriy natijalari ma'lum qilindi.// uza.uz, 2023, 1 may.
5. Ўзбекистон Республикаси Марказий сайлов комиссиясининг Қарори. “2023 йил 9 июль куни ўтказилган муддатидан илгари Ўзбекистон Республикаси Президенти сайлови натижалари тўғрисида”.// saylov.uz/uz/sec_decision/1318.
6. Курбанов Э.Э. Особенности демократического развития Узбекистана на современном этапе.// Молодой ученый, 2014, №10.- 487-489-с.
7. Эгамбердиева А.М. Из истории национально-политических ценностей узбекского народа.// Academy, 2018, №5.- 32-33-с.; Тошев А. Узбекистан: установление принципа осуществления дружественной и миролюбивой внешней политики – новая конституционная ценность.// newscentralasia.net, 2023, 14 июня.
8. Гайдидей Ю.М. Правовая система: понятие и признаки.// Юридическая наука, 2014, №3.- 13-15-с.
9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Tom 3.- T.:O'zbekiston, 1996.- B.192-202.
10. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.// O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O'zbekiston, 1996.- B.321.
11. Mirziyoyev Sh.M. Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.// president.uz, 2023, 8 may.
12. Saidov A. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – inson sha'ni, qadr-qimmati va huquqlarining mustahkam kafolati.// constitution.uz; Юсувалиева Р. Роль общих принципов права в правовой системе Республики Узбекистан в условиях пандемии.// Review of law sciences, 2020, №2.- 25-29-с.
13. Jamolov D.B. Globallashuv sharoitida milliy madaniyatni rivojlantirish muammolari (ijtimoiy-falsafiy aspekt).- T.:TUBO-NASHR, 2024.- B.45.
14. Mustaqillik bilan bog'liq jamiki ne'matlar til bilan bog'liq.//uza.uz, 2019, 22 oktabr.
15. Ro'ziyeva R.X. Urf-odat va an'analar – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida.// Scientific progress, 2021, №4.- 646-b.
16. Ismailova Sh.K. Yoshlar ijtimoiylashuvida axloqiy qadriyatlarining o'rni.// Academic research in educational sciences, 2021, №2.- 64-b.
17. Xudaynazarov S.X., Jamalova N.U. Mustaqillik yillarida etnomadaniy qadriyatlarimizning tikla-nishi va rivoji" Academic research in educational sciences, 2024, №2.- 776-b.